

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

OMON MUXTORNING MODERNISTIK RUHDAGI ROMANLARI SHAKLIY-USLUBIY IZLANISHLAR SAMARASI

Furqatjon Karimov

*Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi w
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Ortda qolgan XX asr dunyo ahli uchun o'zgarishlar, yangilanishlarga boy asr bo'ldi. Ilm-fan, texnika sohalarida qilingan kashfiyotlar insoniyat tarixida ulkan yutuqlarga, voqealarga sabab bo'ldi. Bu o'z navbatida jamiyatdagi hayotga kishilar ongi va dunyoqarashining o'zgarishiga, evrilishiga sabab bo'ldi. Borliqqa o'zgacha nigoh bilan qarash alomatlari adabiyotda ham sezila boshladи.

Ikki asr tutashgan texnika davrida o'ziga xos badiiy ijod uslubi – modernizm XX asrda yuzaga keldi. Bunga G'arbdagi hayot tarzi va fikrlashning o'zgachaligi sabab bo'ldi. Chunki bu davrda Yevropada ilm-fan, texnika, sanoat, iqtisod tez rivojlandi, ishlab chiqarish unumdonligi ortdi, odamlarda boyish imkoniyati tug'ildi. Insonlarda avvalgi davrlarga qaraganda kamroq qiynalib, ko'proq samaraga erishish va yaxshi yashash imkoniyati paydo bo'ldi. Lekin bu hodisalar alohida insonni ham butun insoniyat olamini ham o'zi orzu qilgan baxtga erishtira olmadi. Chunki inson aqli kuchi nafaqat o'zining yaxshi yashashiga, balki o'zining baxtsizligiga ham sabab bo'ldi. Tarixdan ma'lumki, inson aql-u zakovati orqali ommaviy qirg'in qurollarining yaratilishi minglab insonlarning yostig'ini quritdi. Bu hodisalar baxt, taraqqiyot, ilm-fan rivojida deb o'ylagan insonlarning umidini puchga chiqardi. Natijada adabiyotda hayotga ishonchsizlik, ezgulikka umid qilmaslik, inson, hayot, umr bularning bari bema'ni va samarasizdir degan qarash paydo bo'ldi. Buning natijasi o'laroq, biz ko'p tilga oladigan modern (fransuzcha "yangi,zamonaviy") adabiyot vujudga keldi.

Bu adabiyot vakillari hayotni ko'proq qora rangda ko'rdilar, tasvirladilar. Natijada adabiyotning "uy daftarida" avvalgilarga o'xshamagan, o'xshamaydigan qahramonlar paydo bo'ldi. Modernizm butun madaniyat tarixida tamomila yangicha uslub ekanligi ayon bo'ldi. "Modernizm"ning keng ma'nodagi tushunchasi atrofida xilma-xil adabiy maktablar va yo'nalishlar paydo bo'ldi. Modernizm – o'tgan asrning yetakchi ijodiy g'oyasi sifatida nihoyatda salohiyatli, ayni paytda esa bir-birini takrorlamaydigan daholar ijodida yaqqol aks etgan. Bu daholar orasida Matiss, Picasso, Tomass Man, Prust, Joys, Kafka, Lorka, Folkner va boshqalar bor edi.

O'zbek adabiyotida ham Asqad Muxtor ijodidan boshlangan modernizm Rauf Parfi ijodida cho'qqiga yetdi. Keyingi davr she'riyatida Tursun Ali, Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhhammad ijodida bu yo'nalish rivojlanib borayotgan bo'lsa, nasrda Omon Muxtor, Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammadlarni ham alohida e'tirof etmoq zarur.

XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida paydo bo'lgan epik janr – roman bugungi kungacha, ma'lum davrlarda turlicha taraqqiy etib keldi. Mustaqillik qo'lga kiritilgach, o'zbek adabiyotida yangicha yo'nalishlar yuzaga keldi. Bu davrning yutuq-kamchiliklari adabiyotshunos olimlarning ko'plab maqolalarida yoritib berilgan. Istiqoldan so'ng yaratilgan asarlardan roman janrining taraqqiy etib borayotgani ko'zga tashlanadi. Bu bevosita ijod ahliga so'z erkinligi, dunyonи anglash, idrok etish va jahon adabiyoti namunalari bilan chuqurroq tanishish, ijodiy tajribalarni o'rganish va ularni milliy ruh bilan oziqlantirib, badiiy adabiyotda jahon nasriga bo'ylasha oladigan asarlar yaratishga keng imkoniyatlar ochadi. Natijada milliy adabiyotimizda yangicha

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

usullar qo'llanila boshladi, tasvirga olinayotgan voqelik va shaxsga munosabatning yangicha ko'rinishlari bo'y ko'rsatdi.

Badiiy adabiyotda voqeaga emas,balki asar qahramonining ichki ruhiyatiga e'tibor kuchaydi. Jiddiy romanlarda ham xayoliy, badiiy tafakkur mahsuli bo'lgan hodisalar, predmetlar ishtiropi kuzatila boshlandi. Shuning uchun ham modern adabiyotda hayot haqiqatiga rioya qilish muhim hisoblanmaydi. Modern yozuvchilar uchun tasvirning hayotdagiga, borliqdagiga o'xhashi emas, balki odamning ichki olamini, ruhiy to'lg'aamlarini aks ettirishi muhim sanaladi. Falsafiy mushohada, millat tafakkuridagi o'zgarishlar, yangilanishlar Omon Muxtorning "To'rt tomon qibla" trilogiyasiga kirgan "Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikkagi xaroba" va adabiyotshunoslar, kitobxonlar orasida e'tirofga sazovor bo'lgan "Xotin podshoh" va "Maydon" romanlari misolida kuzatishga harakat qildik.

Mustaqillik davri Omon Muxtor ijodida yangi parvozlar qilishga turtki berdi. Adibning o'zi bir necha romanlarining, xusan, "Xotin podshoh" asarining aynan istiqlol davrida ijodkorlarga berilgan cho'ng erkinlik mevasi ekanligini e'tirof etadi. Omon Muxtor modernistik yo'nalishda ijod qiluvchi o'z so'zi, o'z uslubi, o'z ohangiga ega ijodkor edi. Uning falsafiy mushohadaga o'chligi, asarlar ohangi, mavzu jihatdan rang-barangligi, shakldagi izlanishlari, romanlarining mavzu (va deyarli shakl) jihatdan bir-birini takrorlamasligi, milliy o'zbekona ruhning bo'y ko'rsatib turishi, nasriy asarlarida ham nazmning o'ziga xos ohangi, xalq og'zaki ijodi namunalarining betakror qo'llanilishi, son jihatdan ko'pligi, yuragingizga og'riq bergen "olisdan eshitilgan nido" ("Maydon")lari bilan kishini o'ylantiradi, odamlar dardini his qilishga yordam beradi.

Omon Muxtorning o'zbek adabiyotida eng sermahsul romannavis sifatida e'tirof etiladi. U yigirmaga yaqin roman e'lon qilgan bo'lsa, ularda adibning o'ziga xos uslubi, shakl rang-barangligi, mavzu xilma-xilligi, tilida xalqona ohang, nafas esib turishini ko'ramiz. Uning har bir romanii adabiy jamoatchilik orasida turli bahslarga sabab bo'lgani "Xotin podshoh", "Maydon" hamda "Ishq ahli" romanlarining o'zidayoq yaqqol ko'rishimiz mumkin. "O.Muxtor keyingi yillarda e'lon qilingan asarlari o'zbek nasrida va umuman, o'zbek adabiyotida o'zgacha voqeа bo'ldi. Adib badiiy ijodda o'ziga xos uslub egasidir. Ijodning tub mohiyati, ijtimoiy ildizlari va milliyligi nuqtayi nazaridan qaraganda, Omon Muxtor asarlari original romanlar – o'zbek xalq qissalariga yaqindir", - deya e'tirof etadi Hamid G'ulom1.

Har qanday yozuvchining iste'dodi uning qancha asar yozgani-yu,qancha kitob nashr qilganida emas, balki, badiiy tafakkurga qanday o'zgarishlar, yangilanishlar olib kirib, adabiy jarayonga qanday ta'sir o'tkazgani bilan belgilanadi2.

Omon Muxtor adabiyot sahnasida o'z o'rnini topa olgan yozuvchi deb bemalol aytishimiz mumkin. Chunki, uning uslubi hech qanday qoliplarga bo'ysunmaydi. Ya'ni, romanlari an'anaviy romanlarning qolipiga sig'maydi. Birinchidan, romanlarning hajmi kichkina, shakl jihatidan rang-barang, biri ikkinchisini takrorlamaydi. Ikkinchidan, ularning soni salmog'i ham ko'p.

Demak, adib nafaqat she'riyat, dramaturgiyada, balki nasrda ham barakali ijod qilgan. Uning she'rlari, qissa, hikoyalari va dramalari ham talaygina. Lekin epik turning asosiy yirik hajmli roman janrida adibning yigirmaga yaqin romani mavjudligi quvonarli hol, albatta. To'g'ri, romanlarning hajmi xiyla kichik. Zero badiiy adabiyotni sanog'i yoki vazniga qarab o'lchab bo'lmaydi. Uning salmog'i badiiyat tarozisi bilan tortish ruhiyat mezonlari bilan aniqlash lozim. Adib xalq tilida asar bitadi. Ularda, ayniqsa, ko'p uchraydigan holat shuki,turli latifalar, rivoyatlar, tush tasvirlari keltirilishi asarning "xalq qissalarini"ga yaqinlikni ifodalaydi. Shuningdek, ko'plab

1 Омон Мухтор. Тўрт томон қибла. – Т.: Шарқ, 2000. – 2 - бет

2 Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 6-6.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

romanlarda xayoliy-fantastik tasvirlarning real hayotda sodir bo‘lishi yozuvchining o‘ziga xos uslubi ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Eng avvalo, adib romanlari bir-biriga mutlaqo o‘xshamaydi, har biri o‘ziga xos. Ularning barchasi roman janrining an’anaviy qoliplariga sig‘maydi. Ular shaklan ham mazmunan ham o‘zgacha yaratilgan. Adabiyotshunos olim M.M.Baxtin roman janri haqida “shakllanayotgan va hali tayyor bo‘lmagan yagona janr”, deya bahosi to‘g‘riligini bugungi adabiy jarayonda kuzatmoqdamiz. Masalan, hajman an’anaviy qissalarga yaqin Omon Muxtor romanlari, yoki Ulug‘bek Hamdamning “Na’matak” mini-romani fikrimiz isboti bo‘la oladi.

Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov “Roman haqida ayrim mulohazalar” maqolasida: “Biroq, ... hozirda “roman” deb yuritilayotgan asarlarning hammasi ham mazkur talablarga tushmaydi. Mavjud turfalik tufayli, “buning nimesi roman?” deya hayron bo‘lishlar “roman talablariga javob bermaydi, chunki...”, deya da’voni turli yo‘llar bilan asoslashga intilishlarga bot-bot duch kelamiz. Holbuki, bu ham, avvalo, romanning o‘zgaruvchan tabiatini, ikkinchidan, uning joriy adabiy jarayondagi yangiliklarni o‘ziga singdirishga qobil va moyilligi, uchinchidan, janrning turli ko‘rinishlari turli ildizlardan suv ichishi bilan izohlanuvchi tabiiy va qonuniy bir holdir”.

Darhaqiqat, “birgina to‘liq shakllanmagan, bu jarayon davom etayotgan” roman janrining belgilarini aynan ushbu adib romanlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Ular shaklan ham mazmunan ham o‘zgacha yaratilgan. Bu yangilik birinchi navbatda romanlarda shartlilik tamoyillarining ustuvorligida ko‘rinadi. Adib ilgari surayotgan g‘oyaviy niyatini shartli unsurlar, shartli voqealar, ramziy timsollar va manzaralar orqali ifodalashga e’tibor beradi.

“Ming bir qiyofa” asaridagi birinchi hikoya “Tutqun” deb nomlangan. Asar mazmuni sarlavhadan ma’lum bo‘lganidek, qahramonning tutqun bo‘lishi tasviri bilan boshlanadi. Bu hikoyani o‘qish jarayonida adibning uslubiga xos yangi talqinni uchratishimiz mumkin. Asar qahramoni tunda bekatda mashina kutayotgan holatda asarga kirib keladi. So‘ng u mashinaga o‘tiradi, keyin bilsaki, mashina haydovchisiz harakatlanyapti va yana ajablanarlisi noma’lum joyga. “Avtobus uning yonginasiga kelib to‘xtadi. Old – orqa qopqalar lang ochildi. ...Biroq mashinaga minib, qopqalari yopilgan mashina yo‘lga tushgach, oldinga o‘tdi-yu, mashinada haydovchining o‘zi ham ko‘rinmayotganini sezib, angrayib qoldi”.1

Bu voqealarni o‘qigan kitobxon asar voqealariga birinchi o‘qishda ishonmas. Adib asarida tasvirlanayotgan qahramon Abdulla Hakim taniqli ijodkor, boshqa hech narsa bilan emas, shu mashinaning haydovchisiz boshqarilayotganligi bilan qiziqadi. Yozuvchining yangi topib aytgan gapi ham shunda ko‘rinadi. Ya’ni, odamni o‘g‘rilashning, yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, insonning o‘zligini ayrilishi, tortib olinishining yangi ko‘rinishi haqida gap borayotganga o‘xshaydi. Bunday olib qaraganda, fan-texnika rivojlangan davrda yerdan turib oydagil fazoviy kemani bemalol boshqarayotgan inson mashinani ham haydovchisiz boshqarishi mumkin-ku. Qolaversa, bu kelajakda amalga oshishi mumkin jarayonlardan biri bo‘lishi, ehtimol. Yana bir fikr: avtobusning boshqaruvchisiz bo‘lishi, ya’ni jinoyat olamida ham bosh bo‘lmasligiga ishoradir, balki. Chunki Abdulla Hakim aynan shu avtobus orqali jinoyatchilar qo‘liga tushadi.

Yozuvchi “Tepalikdagi xaroba” romanida ham xayoliy voqealar, tasvirlar uchraydi. Bunga sabab, adibning injiqligi yoki real tasvirlarni aks ettirishni yoqtirmaslik emas, balki qahramon ruhiyatidagi nozik qirralarni, o‘zligini ochib berishda qo‘llaydigan o‘ziga xos uslubi. Ya’ni xayoliy voqealar yordamida insonning ichki sezimlar, intim tuyg‘ulari, so‘z bilan ta’rif etib bo‘lmas hissiyotlarni ko‘rsatib berishdir. Yuqorida aytib o‘tilgan roman bosh qahramoni Mirzo G‘olib to‘qayzorda aziz, buyuk uch insonlar: Lutfiy, Mashrab, Bayronni ko‘rib qoladi.

1 Омон Мұхтор. Түрт томон қибла. – Т.: Шарқ, 2000. – 11- бет

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

“Marhumlardan birining boshida fo‘ta, egnida odmi yaktak; yuzi chuvak, kichik soqol qo‘ygan... Ikkinchisi: boshida kuloh, egnida janda; patila-patila sochlari kuloh ostidan chiqqan, kamarigacha tushgan; soqoli ham qalin, to‘s... Uchinchisi: boshida hoshiyali qalpoq qo‘ndirgan,negadir qo‘lida yupqa, oq qo‘lqop; yonida kalta bir tayoq ham yotibdi, yuzi qonsiz, ammo juda ko‘hli...”¹

Tasvirdan bilişimiz mumkinki, ularning birinchisi Lutfiy, keyingisi Mashrab, eng so‘nggisi Bayron. Uch davr, uch muhit insonlarining bir davrda paydo bo‘lib qolishi, albatta, aqlga sig‘mas hodisa. Lekin adib uchun bu voqeа hayotda rostdan sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘lmaganligi qiziqtirmaydi, balki ular asar qahramoni Mirzo G‘olib ruhiyatini ohib berishga, uning o‘zligini tanishiga yordam berishini muhim hisoblaydi.

U o‘zi tasvirlamoqchi bo‘lgan mangу va doimiy mavzularni yangicha qiyofadagi qahramonlar galareyasi orqali ham inkishof etishga erishadi. Romanlarda tarix bilan zamon har doim yonma-yon turadi, qahramonlar ham bugun ham o‘tmish orasida. Yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat, ojizlik va jasorat, loqaydlik va g‘ayrat, bilim va jaholat, xiyonat va sadoqat rishtalarini ayni chog‘da bu qahramonlar o‘zida to‘la mujassam etadilar.

O.Muxtor romanlari mavzu jihatidan xilma-xil va rang-barang. Uning “Ming bir qiyofa” romanida voqealar Abdulla Hakim, lekin uning hayoti Burhon Sharif, Sadirjon va Nasiriddin Afandi kabi obrazlar hayoti bilan bo‘ylab o‘tadi. Asar voqealari u dunyoda ham bu dunyoda ham ro‘y beradi. Insonning yashashdan maqsadi, o‘zligini taniy olish-olmasligi, odamiyiligi, mehr-muhabbat abadiyiligi romanda juda ajoyib tasvirlangan.

Bu haqda adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev: “Omon Muxtor kabi bir qur nosirlar o‘z bitiklarida inson va uning mohiyatini tamomila yangicha nuqtayi nazardan ko‘rish hamda ko‘rsatish yo‘lini tutdilar. Agar oldinlari nasriy asarlarda bir yoki bir necha qahramonning hayot yo‘li yoki taqdiri tasvirlangan bo‘lsa, endi tasvirga tortilgan insonning mohiyatini butun murakkabligi bilan tatbiq etishga tutinildi”¹.

Omon Muxtor aytish mumkinki, polifonik romanlar ijodkori hamdir. Uning bu janrdagi deyarli barcha asarlarida syujet va kompozitsiya qurilishi, voqelikni bayon etish usullari, umum tuzilishi va qahramonlarning o‘ziga xos ekanligidan boshqa adabiyot namunalariga ham umuman o‘xshamasligini aytib o‘tish o‘rinlidir, albatta. Muhibi, adib o‘tgan asrning 90-yillarigacha o‘zbek romanchiligidagi qaror topgan monofonik (bir ovozli) bayonga asoslangan “tartib”ni buzib, polifonik (ko‘p ovozli) romanlar yaratilishiga munosib hissa qo‘shdi”.²

Lekin adibning bu polifonik romanlar o‘z milliy ildizidan, ko‘p yillik tarixga ega barhayot fazilatlardan uzilib qolgani yo‘q. Aksincha, ular o‘zigacha dunyoga kelgan Sharq an’anaviy romanchiligini yangicha bosqichga ko‘tardi. Ya’ni, yirik hajmli “zamonamizning epopeyasi”³ (V.G.Belinskiy) adib milliylikni saqlab qoladi, unga zamonaviy tus beradi, xolos. Ya’ni turli afsona va rivoyatlar, latifalar shuningdek,tush tasvirlarining berilishi tarixiy adabiy jihatdan ham,shakl-shamoyili bilan ham qadim xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizdagи mavjud unsurlarga yaqindir.

1 Омон Мұхтор. Түрт томон қибла. – Т.: Шарқ, 2000. – 328 - бет

1 Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 197- 6.

2 Zyonet.uz saytidan olindi.

3 Умурев X. Адабиётшунослик назарияси. – Т.: 2004, 212 - бет.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

“Tepalikdagi xaroba” romanida ijodiy tajribalar qilish, kutilmagan tasvir yo’sinlarini qo’lllash, badiiy ifodaning qo’llanilmagan, yangi vositalardan foydalanish o’zbek nasri uchun ham yetakchi xususiyat kasb etadi. Har bir yozuvchining o’ziga xos uslubi bo‘ladi. Gyote “Uslub – bu odam” degan edi. Bu hikmat bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan deb bemalol ayta olamiz. Ijodkor qachonki,o’z uslubini topib,boshqalarga o’xshamay yozsa,uning asarlari o’qishli bo‘ladi. Chunki uslub bu – yangilik. Inson esa doimo yangilikka o’ch. Tog‘ay Murod uslubi hammaga yaxshi tanish. Unda sintaktik parallelizm ham, sheva so’zlardan foydalanish ham kuchli. Yana xalq tiliga yaqinlik, baxshi so’zlariga o’xshashlik bor. Nazar Eshonqul uslubida esa ramz va metaforlar bilan tasvirlash,ranglarning o’ta quyuqligi,deyarli barcha asarlarida uchraydigan “badbo‘y hid”, “qo’lansa is”lar uchraydi.

Omon Muxtorning uslubi ham o’ziga xos. Uning asarlarida nazm hamda nasr aralash holda kelaveradi, deyarli barcha romanlarida epigrafni uchratish mumkin. Yana asar qahramonlari yo’qlikdan paydo bo‘lishi, necha asr oldin o’tgan voqealar ichiga tushib qolishi,bugunda o’tmish va o’tmishda hozir namoyon bo‘lishi mumkin.

Omon Muxtor romanlari uslubidagi yana bir jihat ulardagi voqealar rivoji, timsollararo munosabatlar tasvirida dramaga o’xshashlik borligidir. Asarni mistikaga oshno qilgan jihat tasvirda xronotop, ya’ni makon va zamon mutanosibligi talabiga amal qilmaganida ko‘rish mumkin. “Ko‘zgu oldidagi odam” romanida yana bir qiziq holat, inson va shayton o’rtasidagi kurashga guvoh bo‘lamiz. “Tasvirning quyuqligi, inson ruhiyati qatlamlarini aks ettirish miqyosining kengligi va ifoda tarzining favquloddaligiga ko‘ra milliy adabiyotimiz uchun yangi badiiy hodisa bo‘ldi”¹. Adabiyot tarixiga nazar solsak, dunyoviy havaslar, orzu-umidlarga doimo” yordam qo’lini cho‘zgan” va bu bilan ezgu yo’ldan ozdirgan inson qiyofasidagi shayton va iblis obrazlariga duch kelamiz. Gyotening “Faust”, M.Bulgakovning “Usta va Margarita”, Balzakning “Sag’ri teri tilsimi” asarlari shular jumlasidandir. O.Muxtorning “Ko‘zgu oldidagi odam” romanida Valining Siroj muallim qiyofasidagi shayton bilan bo‘lgan murosasiz kurashi tasvirlanadi. Asardagi “Shayton tandagi qon kabi...” so’zları uch marta qaytariladi. Bu bejiz emas , albatta.Chunki asar qahramoni oldida rahmoniy va shaytoniy yo‘l yotadi. Yozuvchi oldiga qo‘ygan asosiy vazifa asar bosh qahramoni “faqat faoliyat odamigina emas, balki o‘y-mushohada kishisi sifatida tasvirlanadi”².O.Muxtor “Navoiy va rassom Abulkayr” asari uchun O‘zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. “Ishq ahli” va “Buyuk farrosh” deb nomlangan ikki qismli diliogiya romani Uyg‘un, I.Sulton va Oybekdan keyin ulug‘ Navoiyning monumental qiyofasini yaratishga yozuvchining intilishlarini mahorat samarasini deb baholash mumkin.

Bilamizki, adib serqirra ijodkor. Uning nasriiy asarlaridan tashqari she’rlari ham talaygina. Uning “Ming bir qiyofa” va “Tepalikdagi xaroba” romanlarida nasr va nazm uyg‘unligini ko‘rish mumkin. “Navoiy va rassom Abulkayr” diliogiyasida ham uning she’riyatdagi nasriy tajribasining ta’siri va nasriy asarlarida she’riyatining aks-sadolarini ko‘rish mumkin. Yozuvchi hazrati Navoiyni o‘zgacha ko‘z bilan ko‘radi va tasvirlaydi. ”Navoiy to‘g‘risida ko‘plab kitoblar yozilgan. Ammo ko‘nglim to‘lmaydi. Bularning aksarida u tirik odamdan ko‘ra ko‘proq devordagi suratga o’xshaydi,”² deydi adib o’z romanida.

U Navoiyni “... bir Osmon, ...bir ummon” ekanligini ta’kidlaydi. Yozuvchi nihoyatda jiddiy ishga qo‘l urganini biladi. Navoiy shoirlar sultonı. Adabiyot tarixida eng yuksak “Everest

1 Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 81- 6.

1 Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 97- 6.

2 Омон Мухтор. Навоий ва рассом Абулхайр – Т.: Шарқ, 2006. –17-бет

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

cho‘qqisi”. Tog‘dan qancha uzoqlashganingiz sari uni zalvori, salobati oshib borgani kabi, Navoiy dahosi yillar, asrlar o‘tib, bizni yanada hayratga solmoqda. Adib o‘zigacha yaratilgan Navoiy siyosini bilar edi. O‘z romani uchun esa shoir asarlariga tayanib, ulardan kelib chiqib, ruhiyatini ilg‘amoqchi, uning insoniy qiyofasini chizmoqchi bo‘ladi. Xullas, Omon Muxtor Navoiyning asarları orqali uning shaxsiyatiga yetib borishga harakat qiladi, buning uchun xalq orasida tarqalgan afsona va rivoyatlardan ham o‘rinli foydalanadi.

“Yozuvchi romanda Navoiy va uning atrofidagilarni o‘ziga xos rassom nazari bilan kuzatadi. ... Hazrati Navoiy timsolini badiiy tadqiq etish jarayonida Omon Muxtor qilgan eng katta kashfiyot, birinchidan “Uning manglayiga DAHO bo‘lish uchun avvaldan fofia muhri bosilgan”ini topganda bo‘ldi deb e’tirof etgan edi”¹.

Omon Muxtor har bir romani sarlavhalariga alohida e’tibor beradi. Va mehnatining natijasi sifatida bir-biriga o‘xshamagan original sarlavhalar topa oldi. Omon Muxtor romanlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, dastlabki ikki romani “Yillar shamoli” va “Egilgan bosh” romanlari mustaqillikdan avval yozilgan. Mustaqillikdan so‘ng adib jami o‘ndan oshiq roman yozgan. Romanlarining ichida “Navoiy va rassom Abulxayr” dilogiyasi (“Ishq ahli”, “Buyuk farrosh”) va “To‘rt tomon qibla” trilogiyasi (“Ming bir qiyofa”, “Ko‘zgu oldidagi odam” ”Tepalikdagi xaroba”) mavjud. “Yigirmaga yaqin roman yozgan adib Omon Muxtor tom ma’noda o‘zgacha uslub egasi. Adabiyot tariximizda romannavislikda bunchalik sermahsul ijodkor kam bo‘lgan. Mustaqillik davridan oldin ikkita an’anaviy roman yozgan adibimiz, mustaqillikdan so‘ng faol ijod qildi. Sharq va G‘arb an’analarini mujassamlashtirgan adib birin-ketin romanlar bitdi. Adabiyotshunos olimlar e’tirofidek, modern adabiyotning yetakchi vakiliga aylandi. Metaasar (Q.Yo‘ldoshev) ruhdagi asarlar yaratdi.² O‘zbek adabiyotida nasrning eng zalvarli janri bo‘lmish romanning paydo bo‘lganiga salkam yuz yil bo‘lgan bo‘lsa-da, bugungi kungacha shaxsiy kuzatishlarimiz orqali ularning soni 500 dan oshdi. Bu jarayon davomli bo‘lishini hisobga olsak, bu son kundan kun bundan ham ortib bormoqda. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” realistik romanidan qo‘ylgan tamal toshining davomchilari bugungi kunda ham bisyor. Abdulla Qodiriyyadan so‘ng Cho‘lpon, Oybek, Said Ahmad, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Hamid G‘ulom, Abdulla Qahhor tomonidan bu an’ana davom ettirilgan bo‘lsa, keyinchalik Shukur Xolmirzayev, Murod Muhammad Do‘sst, Ne’mat Aminov, Omon Muxtor va boshqa yozuvchilar tomonidan an’ana munosib davom ettirildi. Roman janri haqida “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da shunday ta’rif berilgan: “...zamonaviy adabiyotda epik turning yirik hajmli janri. Romanga ta’rif berilganda, odatda, uning hajman kattaligi, hayotni keng ko‘lamda tasvirlashi, qahramon hayotidan katta davrni olib, turli ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘lab talqin qilishi, ko‘plab va turfa kishilar taqdirlari orqali jamiyatning joriy holatini aks ettira olishi; murakkab ko‘p syujetga ega bo‘lishi kabi janr xususiyatlari qayd etiladi. Darhaqiqat, bu xususiyatlar aksariyat romanlarga xos, lekin janr xususiyatlarini shularning o‘zi bilangina belgilash kamlik qiladi: amalda hajman qissadan farq qilmaydigan yoki qisqagina davr mobaynida kechgan voqealar tasviri bilan cheklangan romanlar ham, markazida birgina shaxs taqdiri (boshqa personajlar uning xarakterini ochishga xizmat qiladi) turgan yoki birgina syujet chizig‘iga ega romanlar ham uchraydi”¹. Yuqoridagi ta’rifni roman janrining to‘liq qoidasi deb bo‘lmaydi. Chunki avvallari romannavis adiblarning ijodini kuzatar ekanmiz, ular dastlab hikoyalar yozib ancha qalami charxlangach, keyin qissachilikka va so‘ngra hayotiy, ijodiy tajriba to‘plagach romanchilik janriga qo‘l urishgan. Mustaqillikdan so‘ng har

1 Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 114- 6.

2 Қозоқбай Йўлдош. Сўз ёлқини. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи. 2018. – 328-бет

1 Қурунов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр. 2013. 258-бет

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

sohada bo‘lgani kabi yozuvchi, ijodkorlarga ham keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Endi ijodkorlar dunyo adabiyotini va o‘zimizning adabiyotimiz an’nalarini o‘rganishdi, ulardan ijodiy foydalanishib bir qancha e’tiborga molik romanlar ham yaratildi. Modernistik, postmodernistik, ma’rifiy romanlar, hatto mini-romanlar ham yaratildi. Mustaqillik ijodkorlarga keng ijod qilishni hadya etdi. Omon Muxtor ham aynan mana shunday ijodkorlardan biri. Adib dastlab she’rlar yozdi, so‘ng hikoyachilikda o‘zini sinab ko‘rdi. Xalq og‘zaki ijodini chuqur o‘rganib, ertaklar ham ijod qildi. Qissanavislikda ham qalam tebratib bir qancha detektiv yo‘nalishda asarlar yaratdi. Mana shundan so‘ng o‘zini romanchilik janrida ham sinab ko‘rdi. Mustaqillikka erishgunga qadar Omon Muxtor ikkita roman nashr qildirdi. Bular “Yillar shamoli” va “Egilgan bosh”. O‘zi roman janri ma’lum bir davr, muhit talabi bilan vujudga keladi. “Hayot, davr va zamondagi evrilishlar roman taraqqiyotini belgilaydi. Chunki evrilishlar keng ko‘lamda romanda o‘z ifodasini topadi. O‘z navbatida roman ham davr va zamonning o‘zgarishiga katta ta’sir qiladi. Sababi u odamlar tafakkuri, ma’naviyati, axloqining o‘zgarishiga ko‘mak beradi. Ma’lumki, odamning tafakkurida o‘zgarish bo‘lmash ekan, biror jabbada siljish bo‘lishi dushvor. Negaki inson har bir narsani tafakkuri orqali amalga oshiradi”.¹ Darhaqiqat, tafakkuriy o‘zgarishlar Omon Muxtorning ijodiga ham ta’sir etmay qolmadi. Adib umri davomida 20 ga yaqin roman ijod qilgan o‘zbek adabiyotida romanavis sifatida yagonalar qatorida turibdi. Mazkur bobda biz adibning romanlaridagi shakliy-uslubiy izlanishlar tadrijini tahlilga tortishga harakat qildik. Dastlabki romani “Yillar shamoli” (1976) nashr qilingandan so‘ng kimgadir yoqdi, kimdir tanqid qildi. Bu asarda inson vaadolat masalalari ushbu asarning boshidan oxirigacha qizil ip bo‘lib o‘tgan. Inson zoti borki, doimo adolat uchun kurashib keladi. Kimdir, qachondir, qayerdadir adolatsizlikka uchraydi. Xoh u katta adolatsizlik bo‘lsin, xoh kichik. Agar bu adolatsizliklar oldi olinmas ekan, u jamiyat orasida illat darajasigacha ko‘tarilsa, keyin uni oldini olish, yoki davolash qiyinlashib boraveradi. Mana shu g‘oya asarning asosini tashkil qiladi. Bu haqda yozuvchi Ahmad Otoboy bilan “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasidagi adabiy suhbatida shunday deydi: “Bundan ancha yil burun o‘sim kuzatgan bir oilaning qismatidagi fojia shu romanni yozishga turtki berdi. Menga o‘shanda “jamiyatning guli” bo‘lgan ba’zi odamlarning oliyanoblik, ezgulik haqida og‘iz ko‘pirtirib, amalda birovlarini yanchib, ezib o‘tishi qattiq ta’sir qildi. Shu kabi taassurotlar uzoq vaqt meni bezovta qilib yurdi va nihoyat romanni yozishga o‘tirdim”². Uzoq tanaffusdan so‘ng 1989-yilda adibning ikkinchi romani “Egilgan bosh” nashr etildi. Bu romani ham zamonaviy mavzuda bo‘lib, aynan shu romanlarda adibning keyingi ijodiga xos yangiliklarni kuzatishimiz mumkin. Aynan shu romanida qo‘llagan sinab ko‘rilgan yangilik, tajriba adibning keyingi romanlarida rivojlanib, takomiliga yetgan holda bo‘y ko‘rsatadi. Adib bu asariga asosiy mavzu qilib inson qismatini tanladi. Inson qismati, o‘y-fikrlarini aks ettirish adabiyotning asl kasbi.

Romanda uch insonning hayotga, muhabbatga, erkka bo‘lgan uch xil qarashi asosida qurilgan, mana shu uch xil munosabatlar zamirida yaxlit bir manzarani yaratishga harakat qilgan. Asarda ijodkor katta davrni to‘ntarish, Ikkinci jahon urushi va undan keyingi davr jami 70 yillik davrni qamrashga harakat qilingan. Omon Muxtor o‘zining romanlarida turli xayoliy obrazlardan, voqealardan va eng ko‘pi xalq og‘zaki ijodidagi sirli, sehrli ayniqsa, sehr-jodu motividan ko‘p foydalangan. Bunday tasvirlarning “xamirturush” ini biz tadqiqotmiz davomida “Egilgan bosh” romanida uchratdik. Bu Ro‘dapo obrazi. U yarmi odam, yarmi paypaslagichlardan iborat mahluq,

1 Каримов Ҳакимжон. Ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. – Т., 2008.3- бет

2 Омон Мухтор. Узун йўлақдаги икки киши. Т.: Ўзбекистон, 2011.– 123-бет

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

bor yo‘g‘i bir joyda asar boshida Asrorning tushida namoyon bo‘ladi. Bu obraz jamiyatda keyingi yillarda avj olgan loqaydlik, xaromdan qo‘rqmaslik, birovning mehnati evaziga kun ko‘rish kabi illatlarni ko‘rsatmoqchi bo‘lgan. Roman shakliga to‘xtaladigan bo‘lsak, bayon usulida bir yigitning to‘rt daftari shaklida berilgan. Bu shakl o‘zbek adabiyotida to‘rt maktub shaklida O‘tkir Hoshimovning “Cho‘l havosi” asarida uchratamiz, lekin daftar shaklida berilishi ijodiy yangilik bo‘ldi. Bunday shakl jahon adabiyotini puxta o‘rgangan yozuvchi tomonidan sharqona ruh bilan sug‘orilgan holda dunyoga kelgan. Adib Pushkinning “Belkin qissalari”, Lermontovning “Zamonamiz qahramoni” qissalari shaklidan, Sharq obidalari, xususan, “Chor darvesh” asaridan ruhlangan. Garchi roman voqealari 70 yillik davrni o‘zichiga olsa-da, voqealar asosan bir kunda sodir bo‘ladi. Bu yozuvchidan alohida iste’dod talab qiladi, albatta. Chunki jahon adabiyotida butunlay katta bir asar voqealari bir kunda sodir bo‘lishi uchraydigan hodisa. Masalan, Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani, Jeyms Joysning “Uells” romanlarida ham voqealar asosan bir kunda sodir bo‘ladi.

Dastlabki romanlari ma’lum darajada an’anaviy usullardan foydalanib yaratilgan bo‘lsa, keyingi romanlari shakl hamda uslub jihatidan yangilik qilishga urindi. Bunda, asosan, o‘zbek xalq ertaklari, qissalari, dostonlari, afsonalariga suyangan holda, bugungi kun inson qismatini aks ettirishga va nafaqat qismati, balki, uning ruhiya olami, xayoliy olamini ham tasvirlashga alohida e’tibor berdi. Adibning falsafiy mushohadaga o‘chligi romandan romanga ko‘chib bordi. Adib bu orqali inson ruhiyati, ruhiy olami naqadar kengligini isbotlamoqchi bo‘ldi.

Omon Muxtorning Alisher Navoiyga bag‘ishlangan “Navoiy va rassom Abulxayr” dilogiyasi (“Ishq ahli”, “Buyuk farrosh”) 2001-2004-yillarda yaratilgan. Asar hajmi 2006-yilda “Sharq” nashriyoti tomonidan chop etilgan, 223-betni tashkil qiladi. Adib “Egilgan bosh” romanidagi uslubni dilogiyaning birinchi romani “Ishq ahli”da besh daftar shaklida foydalanadi. Unda rassom Abulxayr orqali Navoiy timsolini yaratishga harakat qiladi. Rassomning turli yillardagi kuzatishlarini betartib shaklda daftarlarga yozib keladi. Shu beshta daftar orqali ijodkor Navoiyning xarakterini, dahosini ochib berishga harakat qiladi. Demak, roman o‘z nomi bilan Ishq ahli haqida. Unda turli rivoyatlar, voqealar orqali Omon Muxtor Navoiyni hamma tasavvur qiladigan shoir sifatida emas, balki oddiy inson sifatida tasvirlashga harakat qiladi. Ya’ni Navoiy ham oddiy inson, u ham sevadi, seviladi, ishqda kuyadi, xato qiladi. Adibning Navoiyning oddiy inson va o‘z navbatida buyuk daho bo‘lganini kitobxonga yetkazishni maqsad qilgan va Navoiyning sevgi versiyasini bo‘yicha ham o‘z taxminlarini bildirib o‘tadi. Dilogiyaning ikkinchi romani “Buyuk farrosh”da esa “rassom Abulxayr esdaliklari” shaklida “Yozuq”, “Tufroq” kabi ikki bobda Navoiyning “faslixazon” davridagi Ansoriy maqbarasida jorubkash bo‘lib o‘tgan davri qalamga olinadi. “Ffu” romani esa rivoyat-roman deb nomlanib, unga bir rivoyat asos qilib olingan, voqealar oddiy shaklda, yengil fikr asosiga qurilgan, unda ezgulik va yovuzlik kurashi aks etgan. Ezgu aql va yovuz aql fojia keltirishi asar qahramonlari Toshpo‘lat va Toshtemir misolida yorqin aks ettirib berilgan. “Ayollar mamlakati va saltanati” romaniga esa asr romani deb tag sarlavha berilgan. Asar publisistik usulda, yengil bir voqeа ustiga qurilgan. “Aflotun” romaniga bir ertak asos qilib olingan, bunda adib og‘irroq bir fikr tafakkur tanazzuli va unga qaytish, mustaqillikka erishish haqidagi mo‘jazgina roman. “Maydon” romani esa roman-hangoma deb izoh berilgan bo‘lib, roman dialogga asoslangan, asosiy voqealar ko‘p qavatlari uyning osma-qutu (lift)iga qamalib qolgan insonlar boshidan o‘tkazgan voqeа va kechinmalari asosiga qurilgan. Omon Muxtor asarlarining “hazm” jarayoni qiyin kechishini sezgan holda, asar boshiga o‘ziga xos “xarita” joylab ketadi. Deyarli barcha asarlarida epigrafdan foydalanadi. “To‘rt tomon qibla” trilogiyasiga mansub “Ming bir qiyofa” romani 3 ta alohida-alohida hikoyatdan tashkil topgan bo‘lib, zukko o‘quvchi ular orasidagi bog‘liqlikni sezadi. O‘z manfaati uchun ming bir qiyofaga kiruvchi korchalonlar va insonni kuch bilan yengib bo‘imasligi asarning asosiy g‘oyasini tashkil qiladi. “Ko‘zgu oldidagi odam” romanida ham, “Tepalikdagi xaroba” romanida

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ham g‘aroyib hodisalarga boyligi, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanishi bilan ahamiyatga molik. “Odamlar kulishlari kerak” romanı yana ham qiziqarli bo‘lib, yozuvchi bo‘sh paytlarda o‘qish uchun yozilgan roman deb izoh keltiradigan ushbu asar voqealar sodir bo‘ladigan joy ham antiqa. Voqealarning ko‘pi hammomda sodir bo‘lishi, o‘zbek adabiyotida yangilik bo‘ldi. Adibning so‘nggi romanlaridan biri bo‘lgan “Muhabbat o‘limdan kuchli” romaniga adib yana bitta nom qo‘shtigan: “Dengiz tubi, sahro qa’rida”. Roman eng ezgu tuyg‘u muhabbatga bag‘ishlangani, asar sarlavhasidan ham sezish qiyin emas. “Omon Muxtor – olam va odamni yaxlit idrok etib, yaxlit tasvirlashga urinadigan yozuvchi. Shu bois uning yaratqlarida sinkretiklik kuchli. Garchi, XX asr dunyo adabiyotda umumiyligidan qochib, xususiylikka intilish tamoyili ustuvor bo‘lsa-da, O.Muxtor hamisha adabiy tur va janrlar o‘rtasida o‘tib bo‘lmaydigan devor yo‘qligini ko‘rsatishga intilib keldi. Uning she’rlarida nasr va drama unsurlari, nasr va dramaturgiyasida esa she’riyatga tegishli belgilari mo‘l-ko‘l uchrashi tabiiy hol”¹.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Omon Muxtor mustaqillikdan oldin, ikkita roman yozdi, qolgan o‘ndan oshiq romanı esa ijodiy izlanishlar, uslubiy yangiliklar, G‘arb va Sharq an’analarini chuqur o‘rganish, xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyot namunalarini chuqur tadqiq qilish va ijodiy yangiliklar yaratish jarayonida vujudga keldi. Mustaqillik boshqa ijodkorlar kabi Omon Muxtor uchun ham keng imkoniyatlar maydonini ochib berdi. An’anaviy romanlardan tashqari ijodkor, modernistik ruhdagi va tarixiy mavzudagi romanlarni yaratdi. Ijodkor sirli-sehrli voqealar, keng tafakkur, shakliy uslubiy izlanishlar orqali kitobxonning saviyasi oshirishga xizmat qiluvchi asarlar qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Йўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 6-б.
2. Қозоқбой Йўлдош. Сўз ёлқини. – Т.: Faafur Fu'lom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy yiji. 2018. – 329-bet
3. Каримов Ҳакимжон. Ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. – Т., 2008.3- бет
4. Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр. 2013. 258-бет
5. Омон Мухтор. Навоий ва рассом Абулхайр – Т.: Шарқ, 2006. – 17-бет
6. Омон Мухтор. Тўрт томон қибла. – Т.: Шарқ, 2000. – 2 - бет
7. Омон Мухтор. Узун йўлақдаги икки киши. Т.: Ўзбекистон, 2011.– 123-бет

8. Умurov X. Adabiyetshunoslik nazariyasi. – T.: 2004, 212 - bet.
9. Ziyonet.uz sayti

¹ Қозоқбой Йўлдош. Сўз ёлқини. – Т.: Faafur Fu'lom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy yiji. 2018. – 329-bet